



TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR HOLATINI TAHLILI

dots. Yuldashev Samad

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0009-0003-9849-2866

syuldashev909@gmail.com

Kurambayeva Nafisa

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0009-0001-6634-272X

kuranbayevanafisa@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada to'qimachilik korxonalari ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda sifatli mahsulot ishlab chiqarish hamda moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar holatini tahlil qilishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: korxona, moliyaviy natija, mahsulot, softushum, foyda, xarajatlar, rentabellik, assortiment, soliq.

АНАЛИЗ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

доц. Юлдашев Самад

Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности

Курамбаева Нафиса

Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы производства качественной продукции и анализ финансово-экономических показателей при организации производственной деятельности текстильных предприятий.

Ключевые слова: предприятие, финансовый результат, продукция, чистый доход, прибыль, затраты, рентабельность, ассортимент, налог.

ANALYSIS OF THE STATE OF ECONOMIC INDICATORS OF TEXTILE INDUSTRY ENTERPRISES

assoc. prof. Yuldashev Samad

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Kurambayeva Nafisa

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Abstract. The article focuses on the analysis of the state of financial and economic indicators of textile enterprises in the organization of production activities.

Keywords: enterprise, financial result, product, net income, profit, expenses, profitability, assortment, tax.

Kirish.

Yangi O'zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda hududlarni barqaror iqtisodiy rivojlantirishning moliyaviy salohiyat ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish; hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish" kabi ustuvor maqsad va vazifalarning belgilab berilishi hududlarni barqaror va jadal rivojlantirishni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, hududlarning moliyaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash, korxonalar ko'lamini yanada kengaytirishni taqozo qiladi (Farmon, 2022).

Xozirgi iqtisodiy sharoitda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari tarkibida asosiy o'rinni mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda tashkil etadi. Moliyaviy natijalarning asosiy qismi mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan shakllanganligi sababli tahlilda asosiy e'tibor ushbu qatorning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi va omilli ta'siriga qaratiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichi hisobot davrida xususiy kapital qiymatining o'sishi (kamayishi)ni o'zida aks ettiruvchi moliyaviy natija hisoblanadi. Moliyaviy natijalar to'g'risida so'z yuritilganda, uning mohiyatiga to'xtalib o'tish joiz. Tadqiqotlar natijasi ko'rsatadiki, moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari bo'yicha iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar shakllantirilgan.

Avlakov (2019) tomonidan "Moliyaviy natijalar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish" deb nomlangan avtoreferatida "Moliyaviy natijalar – xo'jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir" deb ta'rif bergan.

Bundan tashqari Sokolov, Pyatovning (2007) fikrlaricha, "Moliyaviy natija xo'jalik yurituvchi subyektning daromad va xarajatlari o'rtasidagi farq yoki sof aktivlarining o'sishidir" deb ta'riflashgan.

Moliyaviy natijani mohiyati bo'yicha iqtisodchi olim Salova (2017) "Moliyaviy natija – muayyan davrda foyda (zarar) hajmining oshishi yoki kamayishini ifodalovchi ko'rsatkichdir" deb atagan.

Korxonalar xo'jalik faoliyati tahlili darsligida Savitskaya (2013) "Korxona faoliyatining moliyaviy natijasi – olingan foyda va rentabellik darajasini ifodalaydi" deb ta'rif bergan.

Zamonaviy korxonalarda buxgalteriya hisobi deb nomlangan o'quv qo'llanmada Rossiyalik iqtisodchi olim Posherstnikning (2011) fikricha, "Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari korxona faoliyati natijasida olingan iqtisodiy samarani ifodalaydi". Shu boisdan xo'jalik yurituvchi subyektda iqtisodiy samaraga erishish, uni rivojlantirishdagi muhim vazifa korxonaning operatsion, moliyaviy va investitsiya faoliyatida rahbariyat tomonidan daromadlar va xarajatlarni samarali boshqarish usullarini egallashi zarur. Foyda shakllanishini samarali boshqarish boshqaruv jarayonining tashkiliy-uslubiy tizimini barpo etish, foyda shakllanishining asosiy mexanizmlarini bilish, uni tahlil va nazorat qilishda zamonaviy usullardan foydalanishni ko'zda tutadi, deb atagan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarimizdan Karimov, Islomov, Avlokulov (2004) "Moliyaviy natijalar xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir. Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi" deb ta'riflagan.

Smetanko, Kovalenko, Sharapova, Sorokina, Burdyugning (2014) ilmiy tadqiqotlarida moliyaviy natijalarni hisobga olish, moliyaviy hisobning yakuniy bosqichi hisoblanadi deb o'z fikrlarini yoritib berdilar. Tashkilotning moliyaviy natijalari tabiatini yoritib berish uchun

daromad va xarajatlarning iqtisodiy mazmunini amaldagi qonunchilik nuqtai nazaridan o'z xulosalarini berganlar.

Tijorat tashkilotining moliyaviy natijasi haqida O.I.Yefimova foydani tushunadi, shu bilan birga "moliyaviy natija-haqiqatan ham yakuniy natija ular tasarruf etish huquqiga ega narsadir" deb atagan. Masalan A.D.Sheremet "korxonaning moliyaviy natijalari va rentabelligini tahlil qilish" deb qayd etadi.

Bazilinskaya (2011) ham quyidagicha ta'riflaydi: "moliyaviy natija xo'jalik yurituvchi subyekt oladigan foyda yoki zarardir".

Moliyaviy natija bo'yicha xorijiy iqtisodchi olimlardan Skalyuk (2010) ham o'z darsliklarida "moliyaviy natijaning qiymati nafaqat korxonaning xayotiyeligini ta'minlovchi asos, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini, rentabelligini ham aks ettiruvchi, faoliyati asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning miqdoriy o'sish imkoniyati va korxonaning barqaror rivojlanish potensialini ham tavsiflaydi" deb ta'rif beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari hisobini yuritish tartibi, tahlil qilish, tizimli yondashuv, taqqoslash, qiyosiy tahlil, mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy va erkin fikrlash, ilmiy mushohada qilish, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sanoat korxonalarida mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan moliyaviy natija mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulot ish va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxini chegirish asosida aniqlanadi.

Tahlilda sotishning quyidagi uchta qatori tavsiflanadi:

- mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan moliyaviy natija;
- asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va sotishdan natija;
- boshqa aktivlarni sotishdan olingan natija.

Ularni buxgalteriya hisobida alohida hisob obyeksi yoki daromadlarning yuzaga chiqish shakli yoki o'rni sifatida tarkiblanishi belgilangan. Bunda asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi va sotilishi, boshqa aktivlarni sotishdan olingan natijalar asosiy ishlab chiqarishning boshqa jarayonlari sifatida qaraladi. Ularni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda operatsion daromadlar va xarajatlar qatori ko'rsatilishi tartiblangan.

Mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan foyda yoki zarar o'zgarishida omilli tahlilga alohida ahamiyat beriladi.

Mahsulot sotishdan olingan foyda o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

- ❖ Korxonaning o'ziga bog'liq omillar yoki ichki omillar.
- ❖ Korxonaning o'ziga bog'liq bo'lmagan yoki tashqi omillar.

Korxonaning o'ziga bog'liq bo'lgan omillarga mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi, hajmi, assortiment va tarkib omillari kiritiladi. Uning o'ziga bog'liq bo'lmagan yoki tashqi omillarga davlatning soliq siyosatining o'zgarishi, baho omili va boshqa omillar kiradi.

Umumiy jihatdan olganda faqat korxonaning o'ziga tegishli va tegishli bo'lmagan ta'sir omillarini tartiblash qiyin. Ularni faqat nisbiy jihatdan qarash mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik subyeksi o'z faoliyati natijasida sof foydaga erishishni ko'zlaydi. Shu sababli ham sof foyda miqdorini o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish korxona samaradorligini oshirishga olib keladi. Korxona ixtiyorida qoladigan va uning erkin tasarrufidagi foyda sof foyda deyiladi. Ushbu ko'rsatkich soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda ayirmasidan foyda (daromad)dan soliq va boshqa soliqlar va ajratmalar summasini chegirish asosida aniqlanadi. Sof foyda tahlilida uning o'tgan yillarga, shuningdek, korxona biznes rejasi ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishlari o'rganiladi.

Moliyaviy natijaviylikning ushbu yakuniy qatori barcha ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilar e'tiboridagi masala hisoblanadi.

Tashqi axborotdan foydalanuvchilar korxonaning foydalilik darajasiga, o'z aktivlarini maqsadli boshqarishning shartlarini belgilashga ham jiddiy ahamiyat berishadi. Macalan, korxona mulkida hissali qatnashuvchilar aksiya egalari kelishuviga yoki xususiy kapitaldagi ulushiga qarab taqsimlanadigan hisob foydasining holatiga korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda bilan qiziqsalar, investitsiya homiylari esa korxona faoliyatining barqarorligi va o'sish darajalariga ko'proq qiziqadilar.

Bugungi kunda korxona sof foydasining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin (Azimova, 2022):

- mahsulot, ish va xizmatlarni sotish hajmining o'zgarishi;
- mahsulot, ish va xizmatlar bahosining o'zgarishi;
- mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishi;
- davr xarajatlarining o'zgarishi;
- moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda va zararlarining o'zgarishi;
- favqulodda foyda va zararlar o'zgarishi;
- foydadan olinadigan soliqlar va solikli to'lovlarning o'zgarishi va hakovolar.

Tovar mahsulotini sotishdan yalpi foyda miqdoriga esa quyidagi asosiy omillar ta'sir qiladi:

1. Cutilgan mahsulot hajmining o'zgarishi. Bu omil to'qimachilik korxonasi faoliyatiga bog'liq (ichki omil), chunki mahsulot qancha ko'p sotilgan bo'lsa, foyda ham shuncha ko'p bo'ladi. Bu omilning ta'sirini hisoblash uchun quyidagicha ishlar amalga oshiriladi: reja bo'yicha olingan foydaning miqdori sotish bo'yicha rejaning ortig'i bilan bajarilgan foiziga ko'paytirilib, so'ngra 100ga bo'linadi.

2. Ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi. Bu omil ham ichki xususiyatga egadir. Chunki, mahsulot tannarxi qancha kamaysa, foyda ham mutonosib tarzda shunchaga ko'payadi.

3. Ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar darajasining o'zgarishi.

4. Ulgurji bahoning o'zgarishi. Bu omil tashqi xususiyatga ega, ya'ni korxona faoliyatiga bog'liq emas.

5. Boshqa xarajatlar (tashqi omil).

6. Mahsulot assortimenti va tarkibiy tuzilishining o'zgarishi.

Turli mahsulotlar turlicha rentabellik darajasiga egadir. Binobarin, to'qimachilik korxonalari assortiment bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasiga rioya qilmasalar, u holda ular foyda yoki zarar ko'rishlari mumkin. Bu omil ichki xususiyatga ega. Agar korxona assortiment bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasini 100%ga bajarib foyda olgan bo'lsa, bu - korxonaning yutug'idir. Tovar mahsuloti sotishdan kelgan foydani tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning №25-“Sanoat mahsulotini sotish” nomli shakldan olinadi.

Korxonaning moliyaviy natijalari tahlil qilinganda quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

-korxonaning moliyaviy ahvolini tavsiflovchi ko'rsatkichlarini: foyda summasi, sarmoyaning turlari buyicha hisobot davridagi rentabellik va o'zini qoplash darajacini aniqlash hamda ularni o'tgan yilgi xamda biznes- reja ma'lumotlari bilan solishtirish;

- foyda va rentabellik ko'rsatkichlarining qator yillardagi dinamikasini aniqlash hamda o'sish sur'atlarini hisoblab chiqish.

Tahlil jarayonida quyidagi asosiy omillarning foyda va rentabellikka ta'sirini aniqlash va hisoblab chiqish kerak bo'ladi (“BONITO GROUP” MCHJ, 2023-2024):

- sotilgan mahsulot hajmi;
- korxonaning sotishdan olgan daromadi;
- sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;
- davr xarajatlari jami;

- asosiy faoliyat daromadlari va xarajatlari;
- moliyaviy faoliyat daromadlari va xarajatlari;
- favqulotda daromadlar va zararlar;
- to'langan foyda (daromad) solig'i va boshqa soliq va to'lovlar jami.

1- jadval

“BONITO GROUP” MCHJda moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlarining tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	2023-yil		2024-yil		O'zgarishi(+;-)	
		ming so'm	solig to'lagun-gacha bo'lgan foydaga nisbatan	ming so'm	solig to'lagun-gacha bo'lgan foydaga nisbatan	ming so'm	Salmog'i
1	Maxsulot (ish,xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda (030)	15 418 409	105,5	11 573 190	79,2	-3 845 219	-26,3
2	Davr xarajatlari (040)	2 454 503	16,8	1 777 087	16	-677 416	-0,8
3	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari. (090)	1 297 884	8,9	292 447	2,0	-1005 437	0
4	Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi. (100)	14 255 490	9,8	10 088 550	69,1	-4166940	59,3
5	Umumxo'jalik faoliyatining foydasi. (220)	14 611 844	100	11 137 098	100	-3 474 746	100
6	Favquloddagi foyda va zarar. (230)	0		0		0	0
7	Daromad (Foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda(zarar). (240)	14 611 844	100	11 137 098	100	-3 474 746	-
8	Daromad (Foyda)dan soliq va boshqa soliqlar. (250+260)	302 804	2,1	213 531	1,9	-89 273	-0,2
9	Hisobot davridagi sof foyda va zarar. (270)	14 309 040	97,9	10 923 567	98,1	-3 387 473	0,2

Jadval malumotlaridan ko'rinib turibdiki “BONITO GROUP” MCHJda 2024 yil 2023 yilga nisbatan 3 387 473 ming so'mga sof foyda kamaygan. Ya'ni o'tgan yilga nisbatan 0,2% ga ko'paygan. Sof foydaning ko'payganiga asosan to'langan soliqlarning ya'ni foyda solig'i va boshqa soliq hamda ajratmalarning o'tgan yilga nisbatan 89 273 ming so'mga kamaygani tasir etgan. Davr xarajatlari ham 2023 yilda 2 454 503 so'mni ya'ni 16,8 %ni, 2024 yilda esa 1 777 087ming so'mni ya'ni 16 %ni tashkil qilgan. O'tgan yilga nisbatan 0,8% ga kam. Bu ko'rsatkichlar mahsulot(ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda hisobidan qoplanib ketgan. Joriy yilda korxona ma'muriyati birinchi navbatda davr xarajatlarini qisqartirish choralarini ko'rishi lozim. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi ham ko'paygan. 2023 yilning boshida 14 255 490 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, yil ohiriga kelib bu ko'rsatkich 10 088 550 ming so'mni tashkil qilgan. Daromaddan soliq va boshqa soliqlar ham o'z vaqtida to'lanmagan. Yil boshida 302 804 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa yil ohiriga kelib 213 531ming so'mni oradagi farq 89 586 ming so'mni tashkil qilgan.

Umumxo'jalik faoliyatidan olingan zarari hamda foyda solig'i to'lashdan oldingi foyda miqdorining o'zgarishi aynan asosiy faoliyatdan olingan zarari miqdori o'zgarishidagidek bo'lgan. Demak, ushbu korxonada asosiy faoliyatda boshqa moliyaviy faoliyat natijalarida hech qanday o'zgarish ro'y bermagan.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki maqolada to'qimachilik korxonalari ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda sifatli mahsulot ishlab chiqarish hamda moliyaviy natijalarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar holatini tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. To'qimachilik korxonasi ishlab chiqarish, boshqaruv, marketing, investitsiya, moliya, innovatsiya, tashqi savdo faoliyatida erishgan natijalariga, bor resurslardan qay darajada foydalanilganlikni tavsiflashdan iborat bo'ladi.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

"BONITO GROUP" MCHJ (2023-2024) ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Avlokulov. A. Z. (2019) *Moliyaviy natijalar hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. dissertatsiyasi avtoreferati.*

Azimova F.P. (2022) *To'qimachilik sanoati korxonalari faoliyati samaradorligini boshqarishni takomillashtirish. Monografiya. –T.: "Factor book" nashriyoti, 28 iyun.*

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-sonli farmoni. // www.lex.uz.*

Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. (2004) *Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Sharq" NMAK, -592 b.*

Pardayev M.Q., Abdulkarimov A. (2007) *Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili. – CamICI, – 154 b.*

Smetanko A.V., Kovalenko A.S., Sharapova I.S., Sorokina YE.S., Burdyug N.V. (2014) *Moliyaviy natijalar nazariyasi. O'quv qo'llanma.*

Базилинская О.Й. *Финансовый учет: теория та практика: [науч. пособ.] / О.Й. Базилинская ; 2-ге вид. – К.: Сентр учебной литературы, – 398 с.*

Пошерстник Н.В. (2011) *Бухгалтерский учет на современном предприятии: учебно-практическое пособие. –М.: Проспект, -560 с.*

Савитская Г.В. (2013) *Анализ хозяйственной деятельности предприятия: учебник / Савитская Г.В. – М.: Инфра-М, – 384 с.*

Салова А.А. (2017) *Понятие, сущность и значение финансового результата предприятий. //Альманах современной науки и образования, № 7 (120).*

Скалюк Р.В. (2010) *Сушност и значение финансовых результатов в системе развития хозяйственной деятельности промышленных предприятий. http://www.нбув.гов.уа/портал/натурал/нпкнту_э.*

Соколов Й.В. (2007) *Финансовый результат как сел бухгалтерского учета. // Бухгалтерский учет. – № 21. – С. 56-59.*